

Bani Isroilning balo-sinovga solinishi



14:00 / 27.06.2022 2468

Bani Isroilga nisbatan Fir'avning adovatini ko'rgan xalq ham Isroil farzandlariga zulm-zo'ravonlik qilishda Fir'avnga yaqinlashdilar. Hatto yosh bolalar Isroil farzandlarini so'kar, mahalla itlari esa oldiga solib quvlar edi. Har kuni yangi bir balo, har kuni tashvishli bir xabar Bani Isroil boshida hoziru nozir bo'lardi.

Muso alayhissalom qavmini sabr qilishga chorlab tasalli berar edi;
- «(Ey qavmim) Allohdan madad tilab, sabr-toqat qilingiz! Bu yer shak-shubhasiz Allohniki. Uni o'zi xohlagan bandalariga meros qilib berur. Oqibat-natija esa taqvodorlarniki bo'lur».

Lekin Bani Isroil bu sinov va qiyinchilikni yomon qabul qildi. Ular Muso alayhissalomga «Sen bizga hech qanday foyda berolmading. Bizga yordaming tegmadi» deya malomat qilishdi.

«Ular aytdilar: «Sen bizga (payg'ambar bo'lib) kelishingdan ilgari ham (ya'ni o'shanda ham Fir'avn o'g'illarimizni o'ldirib, ayollarimizni tirik qoldirib, zulm qilgan edi), Sen kelganingdan keyin ham ozor ko'rdik». Faqat Muso alayhissalom besabrlik ham qilmadi umidsizlikka tushmadi ham.

«U (Muso) dedi: «Shoyad Parvardigoringiz dushmanlaringizni halok etib, sizlarni bu yerga xalifa qilsa va qanday amallar qilishingizni ko'rsa».

«Ey qavmim, agar Allohga iymon keltirar ekansizlar, demak musulmon bo'lsangizlar, Uning o'zigagina suyaninglar-tavakkul qilinglar!»

«Bas, ular aytdilar: «Allohning o'ziga tavakkul qildik. Parvardigoro, bizlarni bu

zolim qavmga maftunaldanuvchi qilib qo'yma. Va o'zing rahm aylab bizlarni bu kofir qavmdan qutqar».

Fir'avn Bani Isroilni Allohga ibodat qilishdan qattiq qaytarar, agar ular ibodat etsalar g'oyatda darg'azab bo'lar edi. U Allohning yerida masjidlarning Alloh uchun bo'lishini xohlamasdi. Allohning yerida Allohga ibodat qilinsa g'azabi kelardi?!

Fir'avn bu darajada nodon bo'lmasa?!

Axir yer - Fir'avnniki emas - Allohning mulki-ku!? Allohning qullarini Allohning yerida Allohga ibodat qilishdan to'sgan kimsadan ham zolimroq kim bor?!!

Alloh yerida turib bandalarni o'ziga ibodat qilishga chaqirayotgan kimsa eng zolim kimsa emasmi?!!

Lekin, Fir'avn baribir ojiz qoldi. U hech kimni o'z uyida xohlagan ishini qilishdan qaytara olmasdi.

Alloh taolo Muso alayhissalom orqali Bani Isroilga quyidagicha amr etdi;

«Bu uylaringizni qibla-namozgoh qilib (u uylarda) namozni to'kis ado qilinglar».

Fir'avn ham, uning jallodlari ham Bani Isroilni Alloh ibodatidan to'sa olmadi.

Axir banda bilan uning Parvardigori o'rtasini to'sib bo'larkanmi?! Musulmonni Alloh ibodatidan kim to'sa oladi?!

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy
Tarjimon Anvar Ahmad